

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK, RUS TILLARI ADABIYOTI VA XORIJIY TILLAR
KAFEDRASI**

O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
Shaymanova Yulduz Toshniyazovnaning
“Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari”
mavzusidagi

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Fakultet: Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti

Yo‘nalish: Veterinariya meditsinasi.

Fan: O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi.

Guruh: 106



Samarqand – 2025

Tuzuvchi: Shaymanova Y.T. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O‘zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Ulliyeva S. – O‘zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yunusova D. – O‘zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mavzu: Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 80 daq.	Talabalar soni:
O'quv mashg'ulotining turi va shakli	Amaliy-yangi bilimlarni egallash va mustahkamlash bo'yicha o'quv mashg'uloti
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. 2. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. 3. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari. 4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. 5. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talablarda adabiy nutq uslublari, ilmiy uslub va uning xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
– so'zlashuv, ilmiy, ommabop, badiiy, rasmiy uslublar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berish; – uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar haqida tushuncha berish.	– so'zlashuv, ilmiy, ommabop, badiiy, rasmiy uslublar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi; – uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi
O'qitish usullari	ko'rsatma berish, taqdimot, manbalar bilan ishlash, didaktik o'yinlar, mashq, "Sirli so'z", "Noto'g'ri jadval", "Uslubni toping", "Konseptual jadval", "Mozaika", "Mosini toping" "O'zing tanla" usullari.
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli	Ommaviy, yakka tartibli
O'qitish vositalari	O'quv-uslubiy majmua, darslik, tarqatma materiallar, yozuv taxtasi, kompyuter, proyektor.
O'qitish shart sharoitlari	Guruh bilan ishlashga qulay bo'lgan jihozlangan xona
Qaytar aloqaning usul va vositalari	Taqdimot, og'zaki so'rov, tezkor savol-javob, misol va mashqlar, test.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (15 daqiqa)	Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash. 1.1. Tayanch bilimlarni faollashtiruvchi aqliy hujum va “Sirli so‘z” usuli bilan dars boshlaydi (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan matn). 1.2. Yangi mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni va adabiyotlar ro‘yxatini aytadi. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quv ishlarni baholash mezonlarini tanishtiradi. Uyga vazifani so‘rash: 1.3. Talabalar bilimini o‘tilgan mavzu bo‘yicha “Konseptual jadval” (“Biotexnologiya fanining rivojlanish istiqbollari va muammolari” matni), “To‘g‘ri tanlov” usullari bilan tekshiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar va javob beradilar Tinglaydilar va yozib oladilar Aniqlashtiradilar va savol beradilar Baholash mezonlari bilan tanishtiradilar Javob beradilar, bajaradilar
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	Yangi mavzuni o‘tish. 2.1. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini faollashtirish uchun suhbat o‘tkazadi. 2.2. Yangi mavzu mazmunini ochib beradi, mohiyatni ochib beradigan slaydlarni ko‘rsatadi va tushuntiradi. 2.3. Mavzuning har bir rejasi bo‘yicha asosiy tushuncha va jihatlariga e’tibor qaratadi. Mavzuni mustahkamlash. 2.4. O‘qituvchi talabalarga o‘quv topshiriqlarini beradi, yo‘riqnomalari bilan tanishtiradi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi, talabalar ishini kuzatadi, javoblarini tinglaydi.	Savollarga javob beradilar, sharhlaydilar Yozadilar Mavzuni tinglaydilar Mavzuni tinglaydilar Mustaqil ishlaydilar Topshiriqni bajaradilar, test savollarini bajaradilar
3-bosqich. Yakuniy	Dars yakuni 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy	Tushunib oladilar, baholar bilan

bosqich (10 daqiqa)	xulosalar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi. 3.2. Uyga vazifa berish. “O‘zing tanla” usuli orqali topshiriqlar beradi.	tanishadilar, topshiriqlarni yozib oladilar
--------------------------------	--	---

Darsning maqsadi:

Ta’limiy:

- talabalarning matn va uning ko‘rinishlari haqidagi bilimlarini umimlashtirish va boyitish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ko‘nikmalarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi:

- talabalarning so‘z boyligini oshirish; og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, sohaga oid bilimlarini mustahkamlash va boyitish.

Tarbiyaviy:

- talabalarni ona tiliga, ajdodlar merosiga hurmat, vatanparvarlik, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarining shakllanishiga e’tibor qaratish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2020.
2. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2019.
3. Bozorova G., Shaymanova Y., Qarshiboyeva Z. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi (o‘quv qo‘llanma) –Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2023..

Fanlararo bog‘lanish

- ☐ Huquqshunoslik
- ☐ Tilshunoslik
- ☐ Psixologiya
- ☐ Falsafa
- ☐ Tarix
- ☐ Matematika
- ☐ Informatika
- ☐ Fizika
- ☐ Biologiya
- ☐ Iqtisodiyot



DARS SHIORI

**Bilim – bu kuch!
Knowledge
is power!**



UYGA VAZIFANI TEKSHIRISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. “Konseptual jadval”ni quyidagi sohaga oid matn orqali to‘ldiring.

<i>T/r</i>	<i>Termin</i>	<i>Tub</i>	<i>Yasama</i>	<i>Morfologik usul</i>	<i>Sintaktik usul</i>
1	Umumiy patologiya		+		+
2	kasallik	+	+	+	
3					
4					

Umumiy patologiya asoslari

Umumiy patologiya – hayvonlarda uchraydigan kasalliklarning paydo bo‘lishi, rivojlanish qonuniyatlari hamda oqibatini o‘rganadigan fandır. U har bir kasalliklarda ro‘y beradigan qon aylanishi va to‘qimalardagi anormal o‘zgarishlar, yallig‘lanish, issiqlik almashinuvi patologiyasi va boshqa kasalliklarda namoyon bo‘ladigan umumiy patologik jarayonlarni o‘rgatadi.

Kasallikning umumiy rivojlanish qonuniyatlari tabiiy yoki tajriba (eksperiment) uchun sun‘iy kasallantirilgan organizmda hujayra, to‘qima, a‘zo va tizimlarning tuzilishi va ish faoliyati (funktsiyasi)ning me‘yordan o‘zgarishini kuzatib o‘rganadi.

Kasallik haqida tushuncha – kasallikni o‘rganish bilan umumiy patologiya, ya‘ni patologik fiziologiya shug‘ullanadi. Bu fanning asosiy vazifalaridan biri kasallikka to‘liq va to‘g‘ri tushuncha berish bo‘lib, uni o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Kasallikning kelib chiqishi va umumiy rivojlanish qonuniyatlari qanchalik aniq o‘rganilsa, hamda ularga aniq diagnoz qo‘yilsa, kasallikning oldini olish va uni davolash tadbirlari samarali bo‘ladi.

Qadimgi greklarda (eramizdan oldingi V va IV asrlarda) Gippokrat organizm tarkibida 4 xil modda ya‘ni 4 xil suyuqlik (qon, shilimshiq, qora va sariq o‘t suyuqligi) borligini, shu 4 xil suyuqlikning o‘zaro munosabatini tashqi muhit o‘zgartirib yuborishi natijasida kasallik paydo bo‘lishini ta‘kidlab o‘tgan. Ayni shu davrda Gretsiyada Demokritning kasallik kelib chiqishini tushuntiradigan atom yoki zarrachalar nazariyasi vujudga kelgan. Bu nazariyada u atom yoki zarrachalarning organizmda zichlanishi yoki siyraklashishi sababli kasallik paydo bo‘ladi deydi.



Vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) tajriba va kuzatish usullarini keng va har taraflama qo‘llash natijasida turli kasalliklar va ularning kelib chiqishi, oqibatlari hamda aniqlash usullarini yozib qoldirgan. Virxov sellyulyar ya‘ni hujayralar patologiyasi (1858-yil) nazariyasini yaratdi. Bu nazariya kelib chiqishiga ko‘ra progressiv bo‘lib, kasallik hujayralarning turli yot patogen faktorlar ta‘sirida o‘zgarishi tufayli ro‘y beradi deb tushuntiradi.

2-topshiriq. Quyida berilgan terminlarni mos kataklarga joylashtiring.

Biologiya	Kimyo	Fizika

Biosfera, zoologiya, miksedema, kapsid, epiderma, vena, aorta, tos suyagi, oshqozonosti bezi, leshmaniya, eritma, valentlik, ishqor, nisbiy atom massasi, tuzlar, butan, katalizator, kavalent bog‘lanish, zichlik, Avagadro qonuni, atom, elektron, bosim, murakkab efir, kislota, kimyoviy reaksiya, termokimyo, ishqoriy yer metallari, traxeya, tur, oziq zanjiri, biotik omillar, dissimilatsiya, shartli refleks, katta qon aylanish doirasi, biokimyoviy modda, polimer ta’sir, urug‘chilik, kodominantlik, atom, zaryad, tok kuchi, kuchlanish, amper, volt, Nyuton qonuni, molekula, anod, Arximed qonuni, dinamika, radiatsiya, barionik zaryad, zichlik.

3-topshiriq. Quyidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali veterinariya sohasiga oid sintaktik va morfologik usulda yasalgan terminlarga misollar topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.



YANGI MAVZU BAYONI

ADABIY NUTQ USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.
2. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.
3. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari.
4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.
5. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: ilmiy uslub, badiiy uslub, so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, oddiy so‘zlashuv uslubi, adabiy so‘zlashuv uslubi.

Tilning ijtimoiy hayotdagi ma’lum soha doirasiga, ma’lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. So‘zlar ham ma’lum nutq uslubiga xoslanish yoki xoslanmaslik belgisiga ko‘ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf

soʻzlarga boʻlinadi. Oʻzbek tilining nutq uslublari oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimiga esa oʻzbek tili uslubi (stilistika) deyiladi.



Maʼlum nutq uslubi doirasidagina qoʻllanadigan soʻzlar **uslubiy xoslangan soʻzlar**, bunday xususiyatga ega boʻlmagan soʻzlar esa **uslubiy betaraf soʻzlar** sanaladi.

Nutq uslublaridan soʻzlashuv uslubi ogʻzaki nutqqa, qolganlari, asosan, yozma nutqqa xosdir, baʼzan ogʻzaki shaklda ham yuzaga chiqadi.

Soʻzlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qoʻllashning nisbatan erkin uslubi sanaladi. Bu uslub oʻz xususiyatlariga koʻra ikki turga: adabiy soʻzlashuv uslubi va oddiy soʻzlashuv uslubiga ajratiladi.

Adabiy soʻzlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun xos turi boʻlib, u adabiy meʼyorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan boʻladi.

Adabiy soʻzlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, taʼlim, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot namunalari ham shu uslubda yaratiladi.

Oddiy soʻzlashuv uslubi nutq kommunikatsiya jarayonida adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan

izohlanadi. Bu uslubda soʻz tartibi qoidaga nomuvofiq boʻlishi (Kecha konsert boʻldi klubda); koʻchma, obrazli emotsional vositalar koʻproq (gʻayrat qil, shalvirama; Alini qarang, ogʻzi qulogʻida kabi) qoʻllanishi, gaplar dialogik shaklda boʻlib, toʻliqsiz gaplar va imo-ishoraning koʻp ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha kabi), takrorlar (Kelib–kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (naʼlat (laʼnat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon boʻladi. Oddiy soʻzlashuv uslubi badiiy asarda obrazlar nutqini individuallashtirishda keng qoʻllanadi.

Oilada, doʻstlar davrasida kishilarning fikr almashishi jarayonida qoʻllaniladigan nutq uslubi soʻzlashuv uslubi sanaladi. Soʻzlashuv uslubining har ikki turi koʻpincha dialog shaklida roʻyobga chiqadi. Ikki shaxsning oʻzaro soʻzlashuvi dialogik nutq sanaladi. Soʻzlashuv uslubida soʻzlar koʻpincha kinoya, piching, qochirmalarga boy boʻladi. Bu uslubning yana bir oʻziga xos xususiyati uning erkinligidir. Kundalik hayotning barcha jabhalarida kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi soʻzlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi. Oddiy soʻzlashuv uslubida soʻzlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli soʻzlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan toʻldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun soʻraysiz:

— Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb oʻtirmaysiz).

Soʻzlashuv uslubining oʻzi ikki turga boʻlinadi:

1) adabiy soʻzlashuv uslubi; 2) oddiy soʻzlashuv uslubi.

Oddiy soʻzlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari boʻlgan nutqiy ortiqchalikka ham yoʻl qoʻyiladi.

Oddiy soʻzlashuv uslubida gap boʻlaklarining tartibi ham erkin boʻladi. Shevaga xos soʻzlar, qoʻpol, dagʻal soʻzlarning faol qoʻllanilishi kuzatiladi, lekin ularni qoʻllash soʻzlovchining madaniy nutq sohibi emasligini koʻrsatadi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Qonunchilik va rasmiy ish yuritish munosabatlari doirasida qoʻllaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga koʻra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, eʼlonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamlar, kasbga oid soʻzlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qoʻllanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini taʼminlaydi. Tayyor nutq formulalari (shu asosida, shunga koʻra, maʼlum qilamizki, ... ni eʼtiborga olib, ...ga koʻra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi), hujjat matnining darak-axborot xarakterida

bo‘lishini, so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini, badiiy-tasviriylar vositalarining bo‘lmasligini, fe‘lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi. Til materialil hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

RASMIY USLUBNING TURLARI		
Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi)	Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma)	Diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar)

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro‘yobga chiqadi. U har qanday tasviriylar vositalardan, obrazlilikdan xoli bo‘ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da‘vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma‘lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da‘vat etish, axborot o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o‘ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe‘llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma‘lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi. Rasmiy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat‘iy qoliplarga bo‘ysunadi. Masalan, «Ushbu ma‘lumotnomani ko‘rsatuvchi G‘.Mo‘minov haqiqatan ham O‘zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o‘rinbosari lavozimida ishlaydi...». Bu uslub davlat arboblari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog‘ozi singari ish yuritish qog‘ozlarida qo‘llaniladi.

Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), turli xil Anjuman va yig‘ilishlarda qo‘llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistika (lot. publika – xalq, omma) davrimizning eng muhim va dolzarb masalalari haqida o‘quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga tevarak-atrofdal sodir bo‘layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ‘ibot uslubi bo‘lganligi uchun

ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, xatlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Shunga ko'ra, publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoq-dor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda, muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalik, tushunarlik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lamini, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llaniladi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini

tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohaları muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.

Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi (sof ilmiy uslub) yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan (ilmiy-ommabop uslub) bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir. Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi. Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.



Mavzuga oid savollar

1. Uslub deganda nimani tushundingiz? Hozirgi o'zbek adabiy tilida qanday uslublar farqlanadi?
2. Publitsistik uslubning asosiy vazifasi nima?
3. So'zlashuv uslubi qanday turlarga bo'linadi?
4. Atamalar qaysi uslubda keng qo'llanadi?
5. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar



1-topshiriq. Quyida berilgan matnlarning qaysi uslubga xoslanganini aniqlang.

1. Qadimda bir podshoh katta hovuz qurdiribdi. Xalqni jamlab, e'lon beribdi: – Men bu hovuzning sut bilan to'ldirilishini xohlayman. Hamma kechasi bir kosadan sut olib kelib hovuzga quysin. Ertalab hovuz bo'yida yig'ilamiz. Dunyoga dong'i ketgan hovuz bo'lsin! Hamma uy-uyiga tarqalibdi. Voqeamiz qahramoni ham uyga qaytibdi. U yarim tunda bir kosa sutni olib uydan chiqibdi. Bir-ikki qadam tashlagach, xayoliga shunday fikr kelibdi: "Hozir yarim tun. Hech kim ko'rmayapti. Keyin hamma sut quyganda, men bir kosa suv quysam, bilinmay ketadi. Qaytaga bir kosa sut yonimga qoladi". Uyga qaytib, sut o'rniga bir kosa suvni olib, hovuzga quyib kelibdi. Tong otibdi. Podshoh, amaldorlar va butun xalq sut bilan to'ldirilgan hovuzni tomosha qilgani yetib kelishibdi. Ming hayajon bilan ko'rsalarki, hovuz to'la suv ekan...

Hamma bizning qahramonimiz kabi “Men suv quysam, qolganlarniki bilan bilinmay ketadi. Sut quyganim bilan biror narsa o‘zgarib qolarmidi? - deb o‘ylab, suv quyib ketishgan ekan.

O‘sha qahramon kimligini bilasizmi?

Siz va men!

Siz-u bizning o‘zgarishimiz butun jamiyatni o‘zgartiradi. Odam yukini boshqalarga tashlayvermasdan, mas’uliyatni zimmasiga olib, butun insoniyatga foyda keltirishni maqsad qilib yashay boshlashi kerak. Afsuski, biz ko‘pincha huquqimizni talab qilamiz-u, majburiyatlarimizni unutib qo‘yamiz. Aslida, bizning huquq va majburiyatlarimiz qaysi nuqtada birlashadi? (Internetdan)

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalari va “Bilimlar bellashuvi”ning hududiy bosqichlari bo‘lib o‘tdi. Jumladan, Nukus shahar bosqichida hududdagi 47-umumiy o‘rta va ixtisoslashtirilgan maktablardan 383 nafar o‘quvchi 19 fan bo‘yicha o‘z bilimini sinovdan o‘tkazdi. Eng yuqori ball to‘plagan bilimdon o‘quvchilar keyingi bosqichda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

3. Hitori qo‘y zoti – go‘sht-yog‘ yo‘nalishidagi dumbali, dag‘al junli qo‘y zoti. Tojikistonning Hisor tog‘i etaklarida xalq seleksiyasi yo‘li bilan chiqarilgan qadimgi qo‘y zotlaridan biri. Hitori qo‘y zoti tanasining uzunligi va kengligi, yirik dumbasi, tog‘ sharoitiga va yaylovdan yaylovga ko‘chishga moslashganligi, tez yetilishi, keng ko‘krak qafasi, baquvvat oyoqlari bilan boshqa dumbali qo‘ylardan farq qiladi.

4. Meni Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya jarrohligi va akusherligi kafedrasiga 0.5 (yarim) shtat birligida kabinet mudiri lavozimiga ishga qabul qilishingizni so‘rayman.



2-topshiriq. Quyida berilgan matndan ilmiy uslubga xos so‘zlarni toping va ularni izohlang.

QORABAYIR OT ZOTI



Qorabayir ot zoti salt miniladigan va aravaga qo‘shiladigan, qishloq xo‘jalik ishlarini bajarishda foydalaniladigan ot zotidir. Qadimgi O‘rta Osiyo arg‘umoqlarini mo‘g‘ul, turkman va arab ot zotlari bilan chatishtirib, takomillashtirish asosida O‘zbekistonda yetishtirilgan. “Qorabayir ot zoti” atamasi XIX asrning 2-yarmida paydo bo‘lgan va “qo‘lbola”, “xonaki ot” ma’nolarini bildiradi. Unga qadar Sharq va G‘arb yozma manbalarida Buxoro, Qo‘qon, Samarqand va h.k. otlari tilga olingan. Tana tuzilishi yirik, ko‘krakdor, qovurg‘alari tikroq, ishchanlik xususiyatlari yuqori, kuchli, chidamli, chopqir, mahalliy iqlimga, tog‘ sharoitlarida boqishga, uyurda qochirishga yaxshi moslashgan; og‘irligi o‘rtacha 400 kg. Tusi ko‘proq to‘riq, jiyron, kulrang yoki to‘q sariq-malla, qora va saman ranglilari kam uchraydi. Ayg‘irlarining qarchig‘ayi balandligi 147,7-152,3 sm, ko‘krak aylanasi 168-171,5 sm, pochasi yo‘g‘onligi 19,5 sm (biyalariniki tegishlicha 147,7; 168; 18,2). Uch tipga bo‘linadi: aravaga qo‘shiladigan, salt miniladigan va salt miniladigan yuk tashiydigan. Birinchi tipdagi otlar, asosan, sug‘oriladigan dehqonchilik rayonlaridagi vodiylarda; ikkinchi va uchinchi tipdagilari esa O‘zbekiston va Tojikistonning tog‘li rayonlarida boqiladi. Uyur qilib boqishga moslashgan; salt minish, yuk tashishda foydalaniladi. Yuk tashishda og‘ir yuk tortuvchi otlarga tenglashadi. Qorabayir ot zoti O‘zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda urchitiladi. Qorabayir yilqichiligining asosiy markazlari Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida. Tojikistonning Sug‘d viloyatidagi otlarning aksariyat qismi Qorabayir ot zotidan iborat. (<https://uz.wikipedia>)



3-topshiriq. Quyidagi she’rni o‘qing. She’r matnidagi badiiy uslubga xos leksik birliklarni izohlang.

O‘ZBEK O‘G‘LI

Ikki daryo o‘rtasi keng dasturxon,
Tuz totgansan, tuzlig‘ingni unutma.
Dasturxonni belbog‘ qilib o‘stirgan
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Sadarayhon bukilgani – so‘lgani,
Er yigitning egilgani – o‘lgani.
Yo‘l bermagil dushmanlarga kulgani,
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

O‘zbek desam jaranglagan tor kelur,
Undan oldin nomus ila or kelur.
Burgut kelur, lochin kelur, sor kelur,
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Unutmagil nasabingni, zotingni,
Umid bilan otang qo'ygan otingni.
Asra erta kuningni – zuryodingni,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Bo'shamasin zinhor yog'och beshiging,
Qulf ko'rmasin darvozayu eshiging.
Yig'ilmasin supadagi to'shaging,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Ko'pga kelgan kulfatlarga chap berma,
Mahmadona maynalarga gap berma.
Ko'ngil obod bo'lsin, sirtga zeb berma,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Nochor qolsang nokas qo'lini tutma,
Arslonsan-ku tulki yo'lini tutma.
O'zingdan o'zgadan marhamat kutma,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

(Iqbol Mirzo)



4-topshiriq. Quyida berilgan matnning qismlarini tartiblang va bu matn qaysi uslubga xosligini aniqlang.

SamDVMCHBU, ish haqini, -
dan, 2023-yilning yanvar oyi,
universitet kassiri, men, tarqatish
uchun, (qirq bir million olti yuz
yetmish ming to'rt yuz ellik), fakultet
professor-o'qituvchilari va texnik
xodimlarining, laboranti, so'm, oldim,
Rohat Alimova, 41.670.450
miqdordagi, Abdullayev Otabek,
biotexnologiya fakulteti.

5-topshiriq. “Noto‘g‘ri jadval” usuli orqali quyida berilgan uslublar va ularga oid misollarni to‘g‘ri moslashtiring.

NOTO‘G‘RI JADVAL		
T/r	Uslublar	Misollar
1	Ilmiy	Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib, Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi.
2	Rasmiy-idoraviy	Bir narsani surishtirib, tagiga yetmoqchi bo‘lsak, aslidan kelamiz: asli nima edi? Asli qanday edi? va hokazo.
3	Publitsistik	– Xo‘sh, mulla Asomiddin, “O‘tkan kunlar”ni o‘qidingizmi? – Ha, o‘qidim. – Necha marta o‘qidingiz? – Bir marta. Hmm. Bu kitobni bir marta emas, besh marta o‘qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, hayotni, tarixni, tilni o‘rganasiz.
4	So‘zlashuv	Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
5	Badiiy	Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo‘shnim Naim Abdullayevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

6-topshiriq. Tinglab tushunish. Matnni diqqat bilan tinglang. Ushbu matn yuzasidan quyida berilgan savollarga javob yozing.

Arterial giperemiya

Arterial giperemiya organdagi qon tomirlar qonga to‘lib ketadi va kengaygan tomirlar orqali oqib kelayotgan qon miqdori ko‘payadi, ammo ketishi me‘yorda bo‘ladi. Qon tomirlardan tezlik bilan oqib o‘tib ketib, to‘qimalarga yetarli miqdorda kislorod bera olmaydi va karbonat angidridga to‘yinishga ulgurmaydi. Arterial giperemiyada quyidagi belgilar kuzatiladi. 1. *To‘qimalar qizaradi*, bu holat, ayniqsa, shilimshiq pardalarda va terida yaqqol ko‘rinadi. 2. *Mayda tomirlar uradi*, bunda arteriya qon tomirlarining kengayishi, qon oqimining tezlashishi va kengaygan qon tomirlari bo‘yicha puls to‘lqinining tarqalishiga sabab bo‘ladi. 3. *Qon bosimi oshadi* – ya‘ni giperemiyalangan sohadagi tomirlarda qon oqishining kuchayishi va oqayotgan qon miqdori ortadi. 4. Limfa hosil bo‘lishi tezlashadi va kapillyarlar devoridan

suyuqlikning ko‘proq sizib o‘tishi tufayli to‘qima bo‘kadi va giperemiyalangan qismning hajmi kattalashadi.

Arterial qon kelishi kuchayadi va issiqlik darajasi oshishi tufayli tana harorati ko‘tariladi, bu hol shilimshiq qavatlar va terida yaqqol seziladi. Tajribada quyoning periferik simpatik nervi kesib tashlansa, arterial giperemiya osongina yuzaga keladi. Quyong qulog‘ini mexanik ta’sirotlar bilan yaxshilab ishqalansa yoki quyong qulog‘ini 40-50°C issiq suvga tushirsa tezda arterial giperemiya vujudga keladi. Ko‘zning shilliq pardasiga 1-2 tomchi atropin tomizilsa, shilimshiq pardalarda giperemiya paydo bo‘ladi.

1. Ushbu matn qaysi uslubga xos? _____
2. Arterial giperemiya qanday kasallik?

3. Arterial giperemiyada qanday belgilar kuzatiladi.?

4. Qanday holatda to‘qima bo‘kadi va giperemiyalangan qismning hajmi kattalashadi? _____
5. Tajribada quyonda qanday holatda arterial giperemiya osongina yuzaga keladi? _____
6. Shilimshiq pardalarda giperemiya paydo bo‘lishi qanday sodir bo‘ladi? _____



Uyga topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

EKOLOGIK MUAMMOLAR



Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan -texnikaning taraqqiy etishi kabi omillar insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida turli xil ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi: 1. Umumbashariy (global). 2. Mintaqaviy (regional). 3. Mahalliy (lokal). Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday umumbashariy muammolarga ba'zi bir misollar keltirish mumkin:

Ozon qatlamining siyraklanishi. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha [nurlarni yutib olib](#), yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlarning ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir etadi. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida nurlanish odamlarda terining kuyishiga olib keladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chiqayotganligi aniqlangan.

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo'lib, u 2,8 % ni tashkil etadi. Chuchuk suv zahirasi asosan qutblardagi muzliklardir. Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3 – 3,5 km³ suv sarflanmoqda. XXI asrga borib ushbu ko'rsatkich 1,5 – 2 marta ortish imkoniga ega. Daryolarning umumiy yillik

oqimi yer yuzi bo'yicha 50 ming km³. Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv yetishmasligi aniq. Qurg'oqchil mintaqalarda daryolardan to'liq foydalanilganda ularning suvi yetmay qolmoqda. 1980 yillarda bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika davlatlari, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan ifloslanishi o'sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko'rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10 % ni, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda 30 % ni tashkil etadi. Daryo toza suvlarida yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda.

Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd. m³ hajmda o'rmonlar qirg'ilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortishi mumkin. Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirg'ilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln. gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atiga yiliga 11 mln. gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi «Qizil kitob» yaratilishiga sabab bo'ldi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq. Matnni ma'no jihatidan qismlarga ajrating va reja tuzing.

2-topshiriq. O'zbekiston hududida qanday ekologik muammolar kuzatiladi va bu muammolarni bartaraf etish yo'llarini **“Qanday”** sxemasi orqali izohlang.

Muammo	Bartaraf etish yo'llari

3-topshiriq. Tabiat haqida xalq maqollaridan namunalar yozing.

Namuna: Toza havo – dardga davo.



Quyida berilgan topshiriqlar asosida ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy uslubda xos materiallar tayyorlash.



Yangi mavzuni tushuntirish uchun slaydli taqdimot



Reja:

- 1. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.**
- 2. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.**
- 3. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**
- 4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.**
- 5. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.**

“SIRLI SO‘Z” usuli

Quyidagi matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring va fikringizni asoslang. Siz nima deysiz?

Bir mashhur tabibdan so‘rabdilar:

– Dunyoda eng og‘ir xastalik nedir?

Tabib aytibdur:

– Xastalikning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, ammo eng dahshatlisidir.



Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. O'zbek tilining nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga esa o'zbek tili uslubiyati (stilistika) deyiladi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar**, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa **uslubiy betaraf so'zlar** sanaladi.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud

So'zlashuv

Rasmiy-idoraviy

Publitsistik

Badiiy

Ilmiy

So‘zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo‘llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki turga: adabiy so‘zlashuv uslubi va oddiy so‘zlashuv uslubiga ajratiladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun xos turi bo‘lib, u adabiy me‘yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan bo‘ladi. Adabiy so‘zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o‘qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta’riflanadi. Bu uslubda so‘z tartibi qoidaga nomuvofiq bo‘lishi (*Kecha konsert bo‘ldi klubda*); ko‘chma, obrazli emotsional vositalar ko‘proq (*g‘ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og‘zi qulog‘ida kabi*) qo‘llanishi, gaplar dialogik shaklda bo‘lib, to‘liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko‘p ishlatilishi (*Kelyapti* (navbatchi), *Ketdimi? – Ha* kabi), takrorlar (*Kelib–kelib shu gapni topdingmi?*), talaffuzda erkinlik (*na’lat* (*la’nat*), *yangitdan* (*yangidan*), *opti* (*olibdi*) kabi) yaqqol namoyon bo‘ladi.

Oilada, ko‘cha-ko‘yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi sanaladi.



Rasmiy-idoraviy uslub. Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati **aniqlik va ixchamlikdir**, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid so'zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi.



RASMIY-IDORAVIY USLUB

Farg'ona iqtisodiyot va serviz
instituti rektori, prof.B.Botirovga
Boshqaruv fakultetining dekani,
dots.S.Mamatqulovdan

BILDIRISHNOMA

Talabalar turar joyining ahvoli haqida

Sizning ko'rsatmangizga binoan iqtisodiy masalalar bo'yicha rektor o'rinbosari N.Rahimov bilan birgalikda shu yil 5-7-yanvar kunlari Boshqaruv fakulteti talabalari yashaydigan 3-talabalar uyini tekshirib chiqdik.

Barcha xonalar, umuman olganda, talab darajasida. Lekin qish kunlari bo'sa-da, isitish tarmoqlarining yaxshi ishlamayotganligini alohida ta'kidlayman. Birinchi qavanda deraza oynalarini o'rnatish, buzilgan eshiklarni sozlash zarur deb hisoblayman.

Mazkur kamchiliklarni tuzatishda yordam berishingizni so'rayman

Boshqaruv
fakultetining dekani: (imzo) dots.S.Mamatqulov

Samarqand davlat universiteti
rektori, professor R.I.Xalmuradovga
amaliy matematika va informatika
fakulteti 104-guruh talabasi
Iskandarov Akmalidan

ARIZA

Meni Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti "Amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" kafedrasiga 0.5 (yarim) shtat birligida kabinet mudiri lavozimiga ishga qabul qilishingizni so'rayman.

2020.02.09.

imzo

Iskandarov A.



Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yigʻinlarida, turli xil anjumanlarda qoʻllaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistika (lot. *publika* – xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini oʻquvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir boʻlayotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targʻibot uslubi boʻlganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, oʻtkir va taʼsirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.




Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar.



Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.



O‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari

Maksimal ball	Nazorat qilinadigan va baholanadigan ish turlari	Baholashda e‘tibor qaratiladigan jihatlar
5	Mavzu bo‘yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik	Asosiy tushunchalar, ta’riflar, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda qo‘llay olish
5	Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati	Topshiriqlarni to‘g‘ri va to‘liq bajarish, masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish
5	Nazorat ishlarini bajarish sifati	Topshiriqlarni to‘g‘ri va to‘liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish
5	Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati	Berilgan topshiriqni to‘g‘ri va to‘liq bajarish, mustaqil mulohaza yurita olish, bilimlarni amalda qo‘llay olish, masalaga ijodiy yondashish, mohiyatini tushunish va aytib bera olish

